

The Importance of Context in the Annotation of Grammatical Forms Expressing the Past Tense

*Khonnazarov Elyor*¹

Anatatsiya: In this article, information is provided about the present and future meanings of past tense forms under the influence of context and their annotation in the corpus.

Kalit so'zlar: tense, past tense, grammatical form, annotation, context.

Zamon shakllarining korpusdagi annotatsiyasiga bevosita ta'sir etuvchi holat – bir zamon shaklining kontekst ta'sirida butunlay boshqa zamon ma'nosini ifodalashi annotatsiyalash jarayonida ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Zamonlarning ko'chishi asosan so'zlashuv va badiiy uslub doirasidagi matnlarda uchraydi. Kontekst ta'sirida o'tgan zamon grammatik shakllarining mohiyatan anglatadigan zamon ma'nosidan chekinib, hozirgi va kelasi zamon ma'nolarini ifodalash holatlari kuzatiladi.

O'tgan zamon shakllarining hozirgi zamon ma'nosini ifodalashi. Bu holat asosan -di shakli bilan aloqadorlikda yuzaga keladi. Ehtimol, -di shakli o'tgan zamonning hozirgi zamonga nisbatan yaqin nuqtadagi harakat-ho'latlarini ifodalashi bunga sabab bo'lishi mumkin.

➤ **di** shaklining hozirgi zamon ma'nosini anglatishida qaromning qat'iyligiga urg'u beriladi, nutq momentida davom etayotgan harakat-holat aniq amalga oshadigan tarzda tasvirlanadi. Bu holat ko'proq xalq dostonlarida uchraydi. Masalan: *Ketding, bolam, qavmi-qarindoshingga, Ko'p savdolar tushib bunda boshingga.* ("Alpomish" dan) Bu misolda qalmoq elidan jo'nab ketayotgan Barchinga otasi Boysarining so'zlari ifodalangan.

E'tiborlisi, bu ma'noda o'tgan zamon shakllari bilan hozirgi zamonning ifodalanishi nutq jarayonida so'zlovchi va tinglovchining ishtirok etishi hisobiga birinchi va ikkinchi shaxs doirasida uchinchi shaxsga qaraganda ko'proq uchraydi.

Shuningdek, *chiqib qolmoq* birikmasida kontekst ta'sirida -di shakli hozirgi zamon ma'nosini ifodalaydi. Masalan: *Siz ancha ayyor chiqib qoldingiz.* Bu holatda *chiqib qoldi* birikmasi nimadir asosda xulosa qilinganlik, xabarning manba ta'sirida olinganligi (eshitilganligi) ma'nolarini ifodalaydi, bunga *qolmoq* ko'makchi fe'lining *kutilmaganda yuz berganlik* ma'nosi qo'shiladi. -di shaklining misolda hozirgi zamon ma'nosini anglatayotganligini *chiqib qoldingiz ni ekan to'liqsiz* fe'li bilan almasha olishidan ham sezish mumkin: *Siz ancha ayyor ekansiz. Chiqib qoldi ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi o'zbek tili ta'limiy korpusi (uzschoolcorpora.uz) matnlarida 193 o'rinda uchraydi. Shundan 41 ta kontekstda yuqoridagi misollar kabi hozirgi zamon ma'nosida, 152 ta holatda o'tgan zamon ma'nosida qo'llangan. Chiqib qoldi ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasida -di shaklining hozirgi zamonni anglatishi 21%ni tashkil etadi.*

Hozirgi zamonda davom etayotgan harakatga urg'u berib ta'kidlash maqsadida nutqiy vaziyatga ko'ra o'tgan zamonning -di shaklidan foydalaniladi. Bunda harakatning amalga oshishiga nisbatan ishonchning kuchliligidan garchi u nutq momentida hali davom etayotgan bo'lsa-da tugallangandek ma'lumot beriladi. Bunda -di hozirgi zamonning -yap shakli bilan almasha oladi, biroq -di shakli ma'noni kuchliroq ifodalaydi. Bunday holat og'zaki so'zlashuv uslubida tez-tez uchrab turadi. Masalan:

➤ *Yana qancha kutamiz?*

➤ *Ana, keldi!*

➤ **di shakli bilmadim** fe'li tarkibida kontekstga ko'ra umumiy hozirgi zamon ma'nosini ifodalashi mumkin, bunda u -a (-y) shakllariga ma'nodosh bo'ladi. Bu holatda odatda gap tarkibida so'roq olmoshi qo'llanadi: *Bilmadim bugun nima vaj qildi ekan. (A.Qahhor)*

➤ **gan** shakli o'tgan zamonda boshlangan, biroq natijasi nutq momentida ham mavjud bo'lgan holatlarni anglata oladi. Bunda subyekt fe'l asosidagi holat bilan tavsiflanadi. Masalan: *Qishlog'imiz maktabdan uzoqda joylashgan. Oraliq bir yarim soatlik yo'l.* (marifat.uz). Mantiqan olib qaralganda, qishloqning hozirgi zamonda ham maktabdan uzoqda joylashganligi anglashiladi. Ko'proq turg'un belgilar, holatlar tasvirida -gan shaklidan hozirgi zamon ma'nosi ham anglashiladi. Bunda holat fe'llari faol qo'llanadi. Masalan: *Britaniyalik Lenni Jonsning tanasi koronavirusga reaksiyasi tufayli butunlay sarg'aygan.* (daryo.uz). Bizningcha, -gan shakli o'tgan zamonni hozirgi zamonga natija orqali bog'lash vazifasini bajaradi. Biroq fe'l asosidagi harakat-holat o'tgan zamonga oid. Bu -gan shakli harakat fe'llariga qo'shilganda yaqqol seziladi: *Turmush o'rtog'i Rossiyaga ishlagani ketgan.* Ketish harakati o'tgan zamonda sodir bo'lgan, turmush o'rtog'ining nutq momentida yonida yo'qligi esa hozirgi zamondagi natija sifatida qaraladi. Demak, -gan shakli qo'shilgan

¹ Doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

fe'l asosidagi ish-harakatning natijasi orqali hozirgi zamonga bog'lansa-da, harakat-holatning o'zi o'tgan zamonga oidligi misollardagi shaklni hozirgi zamon sifatida baholash imkonini bermaydi.

O'tgan zamon shakllarining kelasi zamon ma'nosini ifodalashi. -di shakli kontekst ta'sirida nutq momentiga eng yaqin nuqtadagi kelasi zamondagi harakat-holatlarni ham ifoda etishi mumkin. Nutqimizda tez-tez uchrab turuvchi "Bo'pti, men ketdim" tarzidagi gapda qo'llangan *ketdim* so'zida ketish harakati nutq momentidan keyin yuz beradi va tahlilda uni kelasi zamondagi fe'l sifatida ko'rsatish to'g'ri bo'ladi. Misoldagi *ketdim* so'zshaklining aynan kelasi zamonning -a qo'shimchasi bilan ifodalanadigan *ketamanga* nisbatan ma'noviy farqlanishi ham mavjud bo'lib, *ketdim* kelasi zamonda yuz beradigan harakatning nutq momentiga eng yaqin ekanligini ifoda etadi.

demoq fe'li *nima* so'roq olmoshi bilan birga qo'llanganda ba'zan unga qo'shilgan -di qo'shimchasi ham kelasi zamon ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Bunda *demoq* faqat II shaxs birlik va ko'plikda *nima deding*, *nima dedingiz* kabi birikmalarda kelasi zamon ma'nosini beradi. O'zbek tilining ta'limiy korpusida *nima deding*, *nima dedingiz* birikmalari 59 o'rinda ishlatilgan bo'lsa, shundan 51 o'rinda kelasi zamon ma'nosi, 8 o'rinda o'tgan zamon ma'nosi anglashilgan. Birikmada kelasi zamonning ifodalanishi 86 %ni tashkil etadi va bu unda kelasi zamon ma'nosi ustuvorligi haqida xulosa qilishga sabab bo'ladi.

- *Maqolamiz avvalidayoq ko'pchilik tomonidan muhokama qilinayotgan "Real" etalonmi, degan savolga javob berib ketsak, nima dedingiz?! (kun.uz)*
- di shaklini bu qo'llanishlarida muayyan vaziyatga munosabat bildirish tinglovchi e'tiboriga havola etiladi va so'zlovchi uni o'zining fikriga qo'shilishini xohlashi mazmuni anglashiladi.

nima so'roq olmoshi bilan birga qo'llangan *qilmoq* fe'lga qo'shilgan -di o'tgan zamon shakli ba'zan kelasi zamon ma'nosini beradi. *Nima qilmoq* birikmasining o'zbek tilining ta'limiy korpusidagi qo'llanilishlari tahlili bu holatning asosan birinchi shaxs doirasida uchrashini ko'rsatdi. *Nima qildim* birikmasining qidiruvidan olingan 47 ta natijadan 19 tasi, *nima qildik* birikmasining qidiruvidan olingan 65 ta natijadan 38 tasida -di shakli kelasi zamon ma'nosini ifodalagan. Garchi ta'limiy korpus matnlarida bir o'rindagina uchrasa-da, ikkinchi shaxs doirasida ham bu birikma tarkibida -di shaklining kelasi zamon ma'nosini anglatishi so'zlashuv uslubida tez-tez uchrab turadi: – *Nima qildingiz kek saqlab? – Dushmanlaringiz Kanizak to'g'risida har xil gap tarqatganda, men ham dushmanlaringiz qatoriga bir qadam qo'ydim. (A.Qahhor)*. Birikma tarkibida qo'llangan -di shaklidan kontekstga ko'ra o'tgan zamon yoki kelasi zamon ma'nolari anglashiladi. Annotatsiyalash jarayonida ularni farqlash uchun model ishlab chiqishda qo'llanishlardagi umumiy jihatlarni belgilab olish zarur. Ta'limiy korpusda birinchi shaxs birlik doirasidagina ishalatilgan ayrim misollarni keltirib o'tamiz:

1. *Balki, yana Moskvaga qaytarman, bu yerda kutib nima qildim.* (daryo.uz)
2. *Aldab nima qildim, ilk bor Manchesterga kelganimda, shu paytgacha erishganlarimni yo'qotgandek his qilgandim.* (kun.uz)
3. *Denis intervyularida hazil aralash, onasining murabbiyligi unga iqtisodiy tarafdin ham yengillik berishini aytadi. «Ortiqcha pulga murabbiy yollab nima qildim», degandi shunday intervyularining birida.* (kun.uz)
4. *Yashirib nima qildim, yaqin-yaqingacha juda nochor yashardik.* (xs.uz)
5. *Tanqid uchun o'zgan misol qidirib nima qildim, mana, mening o'zim, talabalik yillarimda adabiyot his va idrok mahsuli, nimaiki, qalbimiz va badanimiz tomonidan his qilinib, aqlimiz bilan idrok qilindimi, bas, shularning bari chinakam adabiyotning mahsulidir, degan maksimalcha qarashda yurar edim.* (xs.uz)
6. *"Endi bu dunyoda yashab nima qildim!" — deya, joynamoz ustidan turardilar...* (xs.uz)

E'tibor berilsa, yuqorida keltirilgan misollar tarkibida *nima qildim* birikmasiga -b, -ib shaklidagi ravishdosh tobelanib kelgan va kelasi zamon ma'nosi anglashilgan. Demak, -(i)b+nima qildim/nima qildik qolipi asosida misollarni umumlashtirish mumkin. Ta'limiy korpusdagi ushbu birikmadan kelasi zamon ma'nosi anglashilgan 58 ta holatning barchasi ushbu qolip asosida hosil qilingan. Bu qolip hosilasidan o'tgan zamon ma'nosi ham anglashilish holatlari bor. Biroq bu nisbatan juda kam bo'lib, 2 o'rindagina uchraydi:

1. *Xayolingda yo'q-a, xayolingda yo'q!– dedi Jonfig'on kesatib.*

Ha, xayolimda bo'lib nima qildim? (A.Qahhor)

2. *Savollar uyulib keladi. Xo'sh, deputat bo'lib nima qildim? (kun.uz)*

O'tgan zamon ma'nosining anglashilishi -(i)b+nima qildim/nima qildik qolipining jami 60 ta hosilasiga nisbatan atigi 3 %ni tashkil etadi. Qolgan 97% holatda kelasi zamon ma'nosi ifodalanadi. Bu ushbu qolipda kelasi zamon ma'nosi yetakchi ekanligi haqida xulosa qilishga asos bo'ladi.

Shuningdek, *endi* payt ravishi *nima qildim/nima qildik* birikmasi bilan kontekstda birga qo'llanganda, -di kelasi zamon ma'nosini anglatadi. Bunda qiyin vaziyatda qolgan so'zlovchi(lar)ning bu holatdan chiqish uchun o'yg'a tolishi, boshqalardan maslahat so'rashi ma'nolari anglashiladi.

- *Kursdoshlarim barcha gaplardan xabar topibdi, endi nima qildim?*

Yuqoridagi holatlardan tashqari -di qo'shimchasi jonli so'zlashuv uslubida nutqiy vaziyatga bog'liq ravishda faraz ma'nosi bilan quyidagi misollarda ham kelasi zamonni ifodalaydi:

- *Xo'p, ertaga o'qishni tugatding, keyin nima bo'ladi?*
- *Menga yo'lni qayta tushuntir, katta yo'l bo'ylab to'g'ri boraman, Ahmad akaning do'koni keladi, do'kondan chapga burildim, undan so'ng qayerga yuraman?*

Ushbu gaplardagi -di shakli -a kelasi zamon qo'shimchasi bilan erkin almasha oladi. Birinchi misolda -di qo'shimchasi kelasi zamonni anglatishiga kontekstdagi ertaga so'zi ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi misolda -di shakli qo'llangan gapdan oldingi va keying gaplarning kelasi zamonda ekanligi ushbu ma'noni voqelantirgan. Bu ma'noda u uchala shaxsda ham birlik va ko'plikda qo'llana oladi.

➤ **di** shaklidan so'ng kelgan *deya ber (deyaver)* so'zi o'tgan zamon ma'nosini kelasi zamonga o'zgartiradi. Masalan: *Xudo ko'rsatmasin, nimadandir ko'ngli to'lmay, ranjib qolsa, ish pachava bo'ldi deyavering.* (daryo.uz). Bu holatda so'zlovchi -di shakli qo'shilgan fe'l asosidagi harakat-holatning kelajakda yuz berishiga tinglovchining ishonishini shunchalik xohlaydiki, o'tgan zamon shakli orqali go'yoki uni amalga oshgan harakat-holat sifatida tasvirlaydi.

➤ **gan** o'tgan zamon sifatdoshi egalik shaklini olib, uchinchi shaxs buyruq-istak maylidagi **bo'l** fe'li bilan birga kelganda kelasi zamon ma'nosi anglashiladi. Bunda so'zlovchining kelajakdagi qaror va istaklari ifodalanadi. Annotatsiyalash jarayonida ushbu kelasi zamon ma'nosi -sin shakli ta'sirida yuzaga kelayotganligiga e'tibor qaratiladi. Ta'limiy korpusda 20 ta gap tarkibida -gan shakli kelasi zamon ma'nosini anglatgan. Masalan: — *Sumkangning ahvolini qara! Na dars qilasan, na o'qiyasan, na uy vazifasini bajarasan! Hozir o'qimasang, kelajakda qanday kun ko'rasan? Bugun maktabingga borganim bo'lsin!* (marifat.uz).

➤ **(a)r edi** shakli kontekst ta'sirida kelasi zamon ma'nosini anglatishi mumkin: *Bularning yegan-ichgani qayoqqa borar edi.* (A.Qahhor). Ko'pincha qo'shma gap tarkibidagi muayyan shart asosida yuzaga keladigan harakat-holatni ifodalaganda *-(a)r edi* bugun, ertaga va boshqa kelasi zamonga ishora qiluvchi birliklar ta'sirida nutq momentidan keyin amalga oshishi mumkin bo'lgan (lekin shart o'tgan zamonda bajarilmagan bo'lsa, kelajakda amalga oshmaydigan) harakat-holatlarni anglatadi. Masalan: 1. *Maosh berishsa, ertaga uyga ketar edim.* 2. *Ularning borligini bilganimda edi, men bu yerga keyinroq kelar edim.* Misollarning birinchisida kelgusida amalga oshishi mumkin bo'lgan harakat, ikkinchisida esa amalga oshmaydigan harakat ifodalangan.

➤ **moqchi edi** shakli ham matn tarkibidagi kelasi zamonga ishora qiluvchi lug'aviy birliklar ta'sirida kelasi zamon ma'nosini ifodalashi mumkin. Masalan: *Ertaga biz sizlarnikiga bormoqchi edik.* Bunda kelasi zamondagi maqsad ma'nosi anglashiladi. Biroq ko'p hollarda -moqchi edi shaklidan keyingi qismda muayyan to'siq natijasida bu maqsadning amalga oshmasligi bayon qilinadi.

Umuman, o'zbek tilida bir zamonga mansub grammatik shaklning kontekst ta'sirida boshqa zamonni ifodalashi ancha keng tarqalgan hodisa bo'lib, avtomatik annotatsiyalashda ular muammolarni yuzaga keltiradi. Zamonni ifodalovchi grammatik shakllarning korpus matnlarida anglatgan turli ma'nolarini statistik o'rganish va tavsifda o'rganish natijalariga tayanish shakl haqida nisbatan ishonchli ma'lumot beradi. Zamonlarning ko'chishi bilan bog'liq misollardagi umumiyliklarni aniqlash va bu asosda ularning modellarini ishlab chiqish orqali bu muammolarni qisman hal etish mumkin. Biroq butun matn mazmunidan kelib chiqadigan, doimiy sintagmatik munosabatlarga asoslanmagan holda bir zamon shaklining boshqa zamonni anglatish holatlari ham borki, ularni muayyan modellar doirasida qamrab olish mumkin emas. Bunda har bir gap inson tomonidan tahlil qilinib, qo'lda annotatsiyalanishiga zarurat saqlanib qolaveradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Абдуллажонова Ж. Фезл замон формаларининг услубий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1993. – 100 б.
2. Comrie B. Tense. – Cambridge: Cambridge university press, 1985. – P. 139.
3. Караулов Ю. Языковое время и языковое пространство (о понятии хроноглассы)//Вестник Московского университета. Филология. – 1970. – №1. – С. 32-36.
4. Гуломов А. Фезл. –Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1954. – 92 б.
5. Сулаймонов А., Хожиев А., Жўраева Ж. Фезл замонлари. – Тошкент, 1962. – 168 б.
6. Хожиев А. Фезл. –Тошкент: Фан, 1973. – 190 б.
7. Зикриллаев Ф. Рух ва тил. –Тошкент: Фан, 2018. – 464 б.
8. Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фан. док. ...дис. – Тошкент, 2021. – 268 б.
9. uzschoolcorpora.uz
10. daryo.uz
11. kun.uz
12. marifat.uz
13. xs.uz